

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING TA'LIM YO'NALISHLARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HOZIRGI HOLATI

Xodjiyev Azamat Baxodirovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

*Annatatsiya: Dunyo tajribasidan o'quv jarayonini virtual tarzda loyihalash (Simulations), masofaviy ta'lif (Moodle, Ilias, Dokeos va h.k.) shakllarini keng tatbiq etish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash bilan bir qatorda ta'lif jarayonini raqamlashtirish, kasbiy faoliyatga innovatsion tayyorlash jarayonini rivojlantirishda, dasturiy ta'lif vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lif sisatini tubdan yaxshilashga, belgilangan o'quv dasturlarining talabalar tomonidan to'la bajarilishiga, talabalarning shaxsiy qiziqishlarini ortirishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada bugungi kunda talabalarga mobil dasturiy vositalar orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish holati va uni rivojlantirish bosqichlari haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: ta'lif, raqamli texnologiyalar, mobil dasturiy vosita, axborot texnologiyalari, interfaol texnologiyalar, mediata'lif, ko'nikma, malaka.*

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ПО НАПРАВЛЕНИЯМ МАРКЕТИНГОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ходжиев Азамат Баходирович

Независимый исследователь Бухарского государственного университета,

*Аннотация: Проектирование образовательного процесса в виртуальном виде (Simulations), широкое применение форм дистанционного обучения (Moodle, Ilias, Dokeos и др.) из мирового опыта, цифровизация образовательного процесса с использованием передовых технологий, в развитии процессе инновационной подготовки к профессиональной деятельности, с программными средствами обучения все большее значение приобретает совершенствование методики их использования. Это, в свою очередь, служит коренному повышению качества образования, полноценной реализации обучающимися заданных образовательных программ, повышению личной заинтересованности обучающихся. В данной статье отражено современное состояние организации занятий школьников с помощью мобильных программных средств и этапы его развития.*

*Ключевые слова: образование, цифровые технологии, мобильное программное обеспечение, информационные технологии, интерактивные технологии, медиаобразование, знания, квалификация.*

## CURRENT STATE OF ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE FIELD OF MARKETING EDUCATION

Xodjiyev Azamat Baxodirovich

Independent researcher at Bukhara State University,

*Annotation: Designing the educational process in a virtual form (Simulations), widespread use of distance learning forms (Moodle, Ilias, Dokeos, etc.) from world experience, digitalization of the educational process using advanced technologies, in development In the process of innovative preparation for professional activities, with software tools training, the improvement of the methods of their use is becoming increasingly important. This, in turn, serves to radically improve the quality of education, the full implementation of the given educational programs by students, and the increase in the personal interest of students. This article reflects the current state of the organization of classes for schoolchildren using mobile software and the stages of its development.*

**Keywords:** education, digital technologies, mobile software, information technologies, interactive technologies, media education, knowledge, qualification.

Kirish. Respublikamizda axborotli ta’lim bo‘yicha “ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish”[1] haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi [2]. Bu qaror ijrosini ta’minalash maqsadida yurtimiz viloyat va tumanlarida IT - parklar, informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan maktablar tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish va o‘quv jarayonida interfaol texnologiyalarni tatbiq etish, bugungi kun yoshlaridan yuqori malakali kadr bo‘lib yetishish uchun intellektual salohiyatlari, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxs bo‘lishini talab etadi. Hozirgi kunda ta’limning taraqqiy etishida dasturiy hamda raqamli ta’lim texnologiyalarining keng joriy etilishi, turli ta’lim va fan yo‘nalishlarida bilimlarning jadal yangilab borilishi, ta’lim oluvchi talabalarning mustaqil ravishda o‘z aqliy qobiliyatlari hamda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi vazifalarini talab etmoqda [3].

Ta’lim tizimiga qo‘yilgan asosiy maqsadlarimizga erishish yo‘lida o‘quv-uslubiy ta’mnot, pedagoglarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. O‘qituvchidan dunyo ilm-fan rivoji bilan hamohang tarzda bo‘lishi hamda o‘z kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilish qobilyati talab etiladi. Pedagogik kompetensiyaning yuqori darajada bo‘lishi ilm-fan, ta’limning rivojlanish yo‘lida raqamli texnologiyalardan foydalana olishi zarurdir. Shu bilan bir qatorda tayyorlanadigan kadrlarning kasbiy ko‘nikmalarini zamon talabiga mos darajasida bo‘lishining kafolati bo‘lib hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning amaliyotda joriy etilishi, raqamli ta’lim muhitining yaratilishi, raqamli izlar, raqamli vositalar, raqamli ta’lim terminologiyasining rivojlanishini belgilaydi. Hozirgi kunda mahalliy pedagogik fan va amaliyotda raqamli ta’limni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi atamalarni aniq, bir xil izohlash hali ham mavjud emas. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda dasturiy ta’lim vositalari va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanish tamoyillari orqali differential mediata’limni tashkil etuvchi model va metodlar asosida mobil hamda masofaviy ta’limni shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlaridan unumli foydalangan holda talabalarning bilim olish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Raqamli ta’limni rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozimligi talabalarning mobil dasturiy vositalardan foydalanishning hozirgi kundagi holati o‘rganilib so‘rovnama o‘tkazilganda, qatnashchilarining 78,4 foizi smartfon qurilmasini tanlaganligi, raqamli ta’lim haqidagi ma’lumotga ega qatnashchilar 79,7 foizni, mobil dasturiy vositalardan ta’limda foydalanish kerakligini 94,1 foiz qatnashchilar, raqamli ta’limni qo‘llashda mobil ilovalarining zarurati so‘roviga 89,3 foiz qatnashchilar “zarur” degan tanlovlarni amalga oshirganligi sababli onlayn to‘garak tashkil etilib, raqamli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning bilim doiralari kengaytirilsa, ularda ijodiy ishslash ko‘nikma va malakalari hamda o‘zlari tanlagan kasbiga qiziqishlari rivojlanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim tizimiga raqamli ta’lim texnologiyalarning kirib kelishi, ta’lim oluvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishlari va o‘zaro munosabatlari soddalashuvni bilan bir qatorda bevosita joriy etilishi bilan ham izohlash mumkin. Shu bilan birga ta’limdagи o‘zaro munosabatlarning asosiy g‘oyasi yetuk va barkamol shaxsni yetkazib berish bo‘lib, bunda majburiy fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish kabi choralar ko‘rilmoxda [4]. Bunda insonni yuksaklikka harakat holatlarini belgilangan psixologik dasturlar yordamida amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan raqamli o‘rganish inson tafakkurini rivojlantirish uchun inson nazarida juda kam ma’lum bo‘lgan tushunmovchiliklarni, ilmiy

muammolarni yechishda katta hisoblashlar orqali amalga oshiradi [5].

Tahlillardagi fikrlarga asoslanib, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida yetuk mutaxassislarini tayyorlashda raqamli ta'lim texnologiyalardan keng foydalanish orqali ta'lim jarayoniga tadbiq etish tajribasidan foydalanib kelinmoqda deb mulohaza yuritsak ham bo'ladi. Bunda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borilishi ko'zda tutilganligi hamda samarali innovatsion metodlardan foydalangan holda amaliyotga joriy etish ushbu ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar dasturiy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim tizimlarini tashkil etish orqali ta'lim tizimini pedagogik va didaktik jihatdan yanada namunali bo'lish hamda har bir axborotni sinchkovlik bilan tahlil qilgan holda foydalanuvchiga mukammal tarzda topshirish vazifasi qo'yiladi.

Natija. Zamonaviyta'limjarayoniningmaqsadibilim, malaka vako'nikmalarinio'qituvchidan talabaga o'tkazishda emas, balki talabalarning doimiy, uzlusiz o'z-o'zini tarbiyalash, to'ldirish va yangilashga intilish qobiliyatini har tomonlama rivojlanirishdir. Hozirgi kunda kompyuterga asoslangan o'quv tizimlari an'anaviy asosda o'rganish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, yangi asosda kompyuterning favqulodda imkoniyatlardan foydalanishni taqozo etadi. Bu odamlarga ko'plab hodisalarini tushunishga yordam beradigan kuchli virtual vosita sifatida, muqarrar ravishda o'rganilgan faktlar asosida keltirib o'tilgan. Bu bilan ko'nikmalar to'plamiga ega bo'lgan ongni boshqargan holda qul qilish xususiyatiga ham egaligini unutmaslik lozim. Bu ilmiy yondashuvlar hozirgi kunda raqamli ta'limga asoslangan o'quv tizimlarini ishlab chiqishda pedagogik va psixologik jihatdan yanada e'tiborliroq bo'lishga va undagi har bir axborotni sinchkovlik bilan tahlil qilgan holda foydalanuvchiga mukammal tarzda topshirish vazifasi qo'yiladi.

Ushbu maqolada olimlar ilmiy ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida raqamli texnologiyalar asosida "Yo'naliishga kirish" fanini o'qitishning pedagogik asoslari quyidagicha deb belgilash kiritildi.

Ta'limiy asoslari:

- talabalarda raqamli ta'limga bo'lgan madaniy va ilmiy munosabatlarni shakllantirish;
- talabalarda egallayotgan kasbiy ko'nikmalariga oid bilimlarini boyitgan holda mustahkamlash;
- talabalarning individual bilim olishlariga imkoniyatlarini yaratish;
- talabalarning virtual olamga oid tasavvur va ko'nikmalarini shakllantirish;
- dars jarayonida fanlararo integratsiyani amalga oshirish;
- talabalarning olgan bilimlarini o'zi tashxislash xulosa chiqarishga o'rgatish;
- talabalarga dars mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish;
- talabalarning mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini sermazmun va samarali tashkil etish.

Tarbiyaviy asoslari:


- raqamli texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini shakllantira olish;
- barcha axborotlarni saralash va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish;
- bilim va ko'nikma haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;
- vaqtidan unumli foydalanishga o'rgatish.

Raqamli texnologiyalar asosida "Marketing nazariyasi asoslari" fanini o'qitishni pedagogik asoslashning rad etib bo'lmas jihat shundaki – bu davr va zamon bilan hamnafas rivojlanayotgan va raqamlashayotgan jamiyat bo'lib hisoblanishini ta'kidlashimiz lozim. Raqamlashayotgan jamiyatda axborot oqimining psixologik ta'siri juda katta ahamiyatga egaligi, u hayotiy faoliyatda shaxs idrok va tafakkuri shakllanishi qay darajada bo'lishini belgilab berish xususiyatiga ham egaligini hisobga olishimiz zarur. Ta'lim jarayonida raqamlashtirish jarayonini zamon talabidan kelib chiqqan holda to'liq shakllantirishimiz yoki moslashimiz darkor.

Ta'lim tizimida raqamli ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish omillaridan biri o'quv jarayonining sifatini aniqlashga imkon beradigan va har bir ta'lim tashkilotining o'quv faoliyatiga obyektiv baho berishga qodir bo'lgan samarali ta'lim tizimini yaratish hisoblanadi. Sifatli ta'lim deganda – innovatsion hamda mobil dasturiy vositalar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda pedagog va ta'lim oluvchilarning yagona maqsad

asosida birgali

з).



1-расм. Raqamli texnologiyadan foydalanish sxemasi

Raqamli texnologiyalar bilan o'zaro munosabatda pedagogik-psixologik asoslarning professiogrammaga integrativ ta'sirlari ijobiy va albatta salbiy holatlarga olib kelishi mumkin bo'ladi. Ijobiy holatlар yuqorida keltirilgan ta'limi tarbiyaviy, psixologik asoslarning qay darajada (a'lo, yaxshi, o'rta, qoniqarli va qoniqarsiz) ekanligi bilan bog'liq bo'ladi.

Dasturiy ta'lim vositalari asosida "Marketing nazariyasi asoslari" fanini o'qitishni pedagogik asoslashning yana bir rad etib bo'lmas jihat shundaki – bu davr va zamon bilan hamnafas rivojlanayotgan va raqamlashayotgan jamiyat bo'lib hisoblanadi.

Raqamlashayotgan jamiyatda axborot oqimining psixologik ta'siri juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u hayotiy faoliyatda shaxs idrok va tafakkuri shakllanishi qay darajada bo'lishini belgilab berish xususiyatiga ham egaligini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida ham raqamlashtirish jaryonini zamon talabidan kelib chiqqan holda tezlashtirish yoki moslashtirish zarur.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellektga asoslangan holda o'qitish, o'quv faniga doir o'quv-uslubiy materiallar hamda fan doirasidagi testlar asosida talabalarning egallagan bilimlariga qarab ularni rag'batlanirish darajalarini mobil dasturiy vositalar asosida soddalashtiriladi.

Xulosa. Har qanday ta'lim tizimining asosi bo'lib, yuqori sifatli va yuqori texnologiyali axborot-ta'lim muhiti hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, har bir oliy ta'lim muassasasi oldida murakkab va ko'p omilli, ya'ni nafaqat bugungi kun talablarini, balki istiqbolini e'tiborga olgan holda mutaxassis kadrlar tayyorlashning axborot-ta'lim muhitini yaratish vazifasi turganligini anglatadi, natijada ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi motivatsiyaning oshishiga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4699-sonli Qarori (Manba: <https://lex.uz/docs/4800657>).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

3. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов. Современные проблемы науки и образования. ISSN: 2070-7428 <https://elibrary.ru/item.asp?id=37031954> М., 2019. – 94 с.

4. Лутфиллаев М.Х., Ш.М.Хасанов. Разработка и внедрение виртуальных ресурсов в методической системе на основе компьютерных имитационных моделей для инклюзивного образования // LAP Lambert Academic Publishing, Germani.- 2020. -167 р.

5. Вербицкий А.А., Цифровое обучение: проблемы, риски и перспективы// Электронный научно-публицистический журнал "Homo Cyberus". - 2019. - №1(6).